



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvoyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

«O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARIDA QAYTA SUG‘URTA ORQALI RISKLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH»

«ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДИВЕРСИФИКАЦИИ РИСКОВ ПОСРЕДСТВОМ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВЫХ КОМПАНИЯХ В УЗБЕКИСТАНЕ»

“ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF RISK DIVERSIFICATION THROUGH REINSURANCE IN INSURANCE COMPANIES IN UZBEKISTAN”

Shoraximova Zilola Nasirdjonovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti
“Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrası o‘qituvchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligi baholanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi qayta sug‘urtaning sug‘urta portfeli barqarorligini ta‘minlash, yirik va katastrofik risklarni kamaytirish hamda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta‘sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, statistik usullar hamda moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash metodlari qo‘llanildi. Xususan, sug‘urta mukofotlari va to‘lovlari nisbatlari, retention darajasi, sedent ulushi hamda zararlilik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar qayta sug‘urta risklarni samarali taqsimlash orqali sug‘urta kompaniyalari moliyaviy natijalarining barqarorligini oshirishini ko‘rsatadi. Tadqiqot xulosalari asosida O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urta amaliyotini takomillashtirish va risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: qayta sug‘urta, risklarni diversifikatsiya qilish, sug‘urta kompaniyalari, moliyaviy barqarorlik, sug‘urta bozori, retention, sedent ulushi, sessiya, tantema.

В данной статье оценивается эффективность диверсификации рисков посредством использования механизмов перестрахования в страховых компаниях, осуществляющих деятельность в Узбекистане. Основной целью исследования является определение влияния перестрахования на обеспечение стабильности страхового портфеля, снижение крупных и катастрофических рисков, а также на финансовую устойчивость страховых компаний. В ходе исследования применялись методы системного и сравнительного анализа, статистические методы и методы оценки на основе финансовых показателей. В частности, были проанализированы соотношения страховых премий и выплат, уровень собственного удержания (retention), доля цедента, а также показатели убыточности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что перестрахование способствует повышению стабильности финансовых результатов страховых компаний за счёт эффективного распределения рисков. На основе выводов исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование практики перестрахования и повышение эффективности управления рисками на страховом рынке Узбекистана.

Ключевые слова: перестрахование, диверсификация рисков, страховые компании, финансовая устойчивость, страховой рынок, собственное удержание (retention), доля цедента, цессия, тантьема.

This article assesses the effectiveness of risk diversification through the use of reinsurance mechanisms in insurance companies operating in Uzbekistan. The main objective of the study is to determine the impact of reinsurance on ensuring the stability of insurance portfolios, reducing large and catastrophic risks, and enhancing the financial stability of insurance companies. The research

employs systematic and comparative analysis, statistical methods, and evaluation techniques based on financial indicators. In particular, the ratios of insurance premiums to claims, the level of retention, the cedent’s share, and loss ratio indicators are analyzed. The findings demonstrate that reinsurance contributes to improving the stability of insurers’ financial results by enabling effective risk distribution. Based on the study’s conclusions, scientific and practical recommendations are proposed to improve reinsurance practices and enhance risk management efficiency in the insurance market of Uzbekistan.

Keywords: reinsurance, risk diversification, insurance companies, financial stability, insurance market, retention, cedent’s share, cession, tantieme.

Bugungi globallashuv va moliya bozorlarining jadal rivojlanishi sharoitida sug‘urta kompaniyalari faoliyati yuqori darajadagi noaniqlik va risklar bilan chambarchas bog‘liqdir. Sug‘urta portfelli hajmining kengayishi, sug‘urta mahsulotlarining murakkablashuvi hamda yirik va katastofik risklarning ortib borishi sug‘urta kompaniyalaridan risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda qayta sug‘urta sug‘urta kompaniyalari uchun risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Qayta sug‘urta sug‘urtalovchilarga o‘z zimmasiga olingan risklarning bir qismini boshqa sug‘urta yoki qayta sug‘urta kompaniyalariga o‘tkazish imkonini berib, zararlarning konsentratsiyasini kamaytiradi va risklarni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Natijada sug‘urta kompaniyalari yirik moliyaviy yo‘qotishlardan himoyalanaadi, to‘lovga qobiliylik darajasi mustahkamlanaadi hamda moliyaviy natijalarning barqarorligi oshadi. Ayniqsa, tabiiy ofatlar, sanoat avariylari va boshqa favqulodda holatlar bilan bog‘liq katastofik risklarni boshqarishda qayta sug‘urtaning ahamiyati yanada ortadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorida institutsional islohotlar amalga oshirilib, sug‘urta faoliyatini tartibga solish tizimi takomillashtirilmoqda. Bozor ishtirokchilari sonining ortishi, sug‘urta mukofotlari hajmining oshishi va sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning kengayishi sharoitida sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq amaliyotda qayta sug‘urtadan foydalanish darajasi, uning risklarni diversifikatsiya qilishdagi samaradorligi hamda moliyaviy natijalarga real ta’siri etarli darajada chuqur ilmiy tadqiq etilmagan.

Shu munosabat bilan, qayta sug‘urta mexanizmlarining O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari faoliyatida risklarni diversifikatsiya qilishdagi o‘rni va samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada qayta sug‘urtaning sug‘urta portfeli barqarorligini ta’minlash, yirik va katastofik risklarni kamaytirish hamda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta’siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urta amaliyotini takomillashtirish va risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish masalasi sug‘urta ilm-fani va moliyaviy boshqaruv sohalarida keng tadqiq etilgan bo‘lib, turli olimlar va amaliyotchilar tomonidan nazariy va amaliy jihatlari batafsil yoritilgan.

Guillaume Gorge (2020) tomonidan chop etilgan “Insurance Risk Management and Reinsurance” kitobida sug‘urta risklarini boshqarish va qayta sug‘urta mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi tizimli tarzda tahlil qilingan. Muallif qayta sug‘urta shartnomalarining proporsional va noproportional turlarini, riskni baholash metodlarini va sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda ushbu instrumentlarning o‘rni va ahamiyatini yoritadi. Kitobda ta’kidlanishicha, risklarni diversifikatsiya qilish sug‘urta portfeli konsentratsiyasini kamaytirish, yirik yo‘qotishlar ehtimolini pasaytirish va kapitalning optimal taqsimlanishini ta’minlash imkonini beradi, bu esa O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

G.V. Chernova (2014) o‘quv qo‘llanmasi Страхование и управление рисками esa sug‘urta risklarini boshqarish nazariyasi, sug‘urta portfeli barqarorligini ta’minlash mexanizmlari va qayta sug‘urta amaliyotini milliy va xalqaro kontekstda yoritadi. Muallif qayta sug‘urtaning sug‘urta

kompaniyalarining moliyaviy natijalariga ta’sirini tahlil qilib, retention darajasi va session ulushi orqali risklarning optimal taqsimlanishini amalga oshirish muhimligini ko’rsatadi. Shuningdek, ushbu manba sug’urta kompaniyalari faoliyatida risklarni diversifikatsiya qilishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi va maqola uchun konseptual chegara yaratadi [2].

Shuningdek, Swiss Re kompaniyasi tomonidan tayyorlangan *The Essential Guide to Reinsurance* (2019) amaliy jihatlarni keng yoritadi. Kitobda qayta sug’urta shartnomalarining tuzilishi, riskni proporsional va noproportional asosda taqsimlash, sedent va session konseptlari hamda tantema (tantieme) mexanizmlarining moliyaviy barqarorlikni oshirishdagi roli batafsil tushuntirilgan. Mualliflar ta’kidlaydiki, qayta sug’urta risklarni samarali taqsimlash orqali sug’urta kompaniyalarining kapital etarliligi va moliyaviy natijalari barqarorligini oshirishga xizmat qiladi, bu esa O‘zbekiston sug’urta bozorining rivojlanishida amaliy ahamiyatga ega [3].

Mazkur manbalarni solishtirib tahlil qilganda, qayta sug’urta orqali risklarni diversifikatsiya qilishning ilmiy va amaliy jihatlari quyidagicha umumlashtiriladi: birinchidan, riskni proporsional va noproportional asosda taqsimlash sug’urta portfeli barqarorligini oshiradi; ikkinchidan, retention va session ulushi risklarni optimal boshqarish mexanizmi sifatida xizmat qiladi; uchinchidan, tantema va boshqa moliyaviy mexanizmlar kompaniya daromadlarini barqarorlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda sug’urta kompaniyalari faoliyatida qayta sug’urta amaliyotini yanada kengaytirish va optimallashtirish zarurati dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda sug’urta kompaniyalarida qayta sug’urta mexanizmlari orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini ilmiy jihatdan baholashga qaratilgan bo‘lib, metodologik jihatdan tizimli, qiyosiy va empirik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning asosiy vazifasi sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va portfel risklarini optimallashtirishga qaratilgan qayta sug’urta amaliyotining samaradorligini aniqlashdir. Shu maqsadda tadqiqot bir nechta metodologik bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqich — nazariy va konseptual asoslarni shakllantirish. Bu bosqichda sug’urta va qayta sug’urta bo‘yicha akademik adabiyotlar tahlil qilindi, shu jumladan risk boshqarishning nazariy konseptlari, risk diversifikatsiyasi mexanizmlari va kapital etarliligi tushunchalari aniqlashtirildi. Nazariy tahlil orqali proporsional va noproportional qayta sug’urta shartnomalarining iqtisodiy samaradorligi va sug’urta portfeli barqarorligiga ta’siri hamda retention, session va tantema kabi moliyaviy ko’rsatkichlar konseptual ramka sifatida ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqich — empirik tahlil va ma’lumotlarni yig‘ish. Tadqiqot O‘zbekiston sug’urta bozoridagi etakchi kompaniyalar faoliyatiga oid moliyaviy va statistik ma’lumotlarni tahlil qiladi. Ma’lumotlar manbai sifatida kompaniyalarning yillik hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ochiq ma’lumotlari, shuningdek, xalqaro sug’urta statistikasi (Swiss Re, Munich Re) dan foydalanildi. Ushbu bosqichda sug’urta mukofotlari va to‘lovlari, retention darajasi, session ulushi, zararlilik (loss ratio) kabi indikatorlar yig‘ilib, ularning qayta sug’urta orqali diversifikatsiyaga ta’siri kvantitativ usullar yordamida tahlil qilindi.

Uchinchi bosqich — tahliliy va statistik metodlar va xulosalar chiqarish. Risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholashda statistik va moliyaviy ko’rsatkichlar o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, proporsional va noproportional qayta sug’urta turlari bo‘yicha portfel barqarorligi, yo‘qotishlar dispersiyasi, va kapital samaradorligi indeksleri hisoblab chiqildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, regressiya modellari va korrelyatsion tahlil metodlaridan foydalangan holda qayta sug’urta mexanizmlarining moliyaviy natijalarga ta’siri aniqlangan. Empirik natijalar va moliyaviy ko’rsatkichlar tahlili asosida qayta sug’urta instrumentlarining samaradorligi, risklarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari va O‘zbekiston sharoitida amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy-asoslangan xulosalar ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari sug’urta kompaniyalari rahbarlari uchun tavsiyalar, risk-menejment strategiyalari va qayta sug’urta portfeli optimallashtirish choralarini shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin. Natijada, tadqiqot metodologiyasi nazariy asos, empirik ma’lumotlar tahlili, statistik va moliyaviy ko’rsatkichlarni hisoblash hamda qiyosiy tahlil bosqichlarini birlashtiradi, bu esa sug’urta kompaniyalarida qayta sug’urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini kompleks va ilmiy asoslangan tarzda baholash imkonini beradi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston sug‘urta bozori 2025 yilning 9 oyi davomida sezilarli o‘shish va moliyaviy natijalarni ko‘rsatdi. Tadqiqot uchun yig‘ilgan ma‘lumotlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari sof foyda va o‘shish sur‘atlari bo‘yicha turlicha natijalarni qayd etdi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2025 yil 9 oy ko‘rsatkichlariga asosan eng ko‘p foyda olgan kompaniyalar (mlrd so‘m)

№	Kompaniya nomi	Sof foyda	O‘shish (+/-)
1	Apex Insurance	203,5	-27,8%
2	O‘zbekinvest EISK	45,2	+24,8%
3	Euroasia insurance	37,5	+323,3%
4	Mosaic insurance group	28,2	+66,7%
5	Alfa invest	26,9	+122%
6	Gross sug‘urta	26,9	+46,4%
7	My-Insurance	24,6	+46 742%
8	Hamkor sug‘urta	18,8	+3,5%
9	SQB insurance	17,3	+7%
10	Kafolat sug‘urta	15,1	-84,1%
11	Kafil sug‘urta	15,0	+157,5%
12	Alskom Sug‘urta	14,0	+548,5%
13	Tbc sug‘urta	13,8	—

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, bozorining sof foydasi va o‘shish sur‘atlari kompaniyalar bo‘yicha sezilarli farq qiladi. Apex Insurance eng katta sof foydaga ega bo‘lishiga qaramay, o‘shish sur‘ati -27,8% ni tashkil etib, risklarni diversifikatsiya va qayta sug‘urta mexanizmlaridan etarlicha samarali foydalanilmaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Euroasia Insurance va Alskom Sug‘urta kabi kompaniyalar yuqori o‘shish sur‘atlari (+323,3% va +548,5%) bilan ajralib, qayta sug‘urta va innovatsion risk boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini hamda bu mexanizmning milliy sug‘urta tizimidagi o‘rni va ta‘sirini ko‘rsatadi. Empirik tahlil uchun foydalanilgan statistik ma‘lumotlar Ichki bozor hisobotlari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma‘lumotlari hamda davlat va sug‘urta tashkilotlari hisobotlari asosida yig‘ildi.

2025-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sug‘urta bozorining o‘shishi sezilarli bo‘lib, sug‘urta xizmatlari umumiy hajmi 10 trln so‘mdan oshdi — bu 2024-yilga nisbatan qiymat jihatidan sezilarli o‘shishni anglatadi. Shu davrda qayta sug‘urta xizmatlari bo‘yicha joriy siklda 14,2 % atrofida ulush ta‘minlangani kuzatildi, bu milliy bozorda qayta sug‘urtaning risk diversification uchun ahamiyati ortganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek 2025-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-191-sonli qarori (23.05.2025) qabul qilindi va unda “O‘zbekiston qayta sug‘urta kompaniyasi” milliy qayta sug‘urta tashkiloti tashkil etilishi belgilandi. Ushbu kompaniyaning ustav kapitali 300 mlrd so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda shakllanadi va uning 50 % davlat, qolgan 50 % esa xususiy investorlar hissasi bilan tashkil etiladi [1].

Prezident qarori bo‘yicha milliy qayta sug‘urta kompaniyasi:

- Barcha turdagi qayta sug‘urta faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ladi;

- Xorijiy va mahalliy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari risklarini qamrab olish uchun kompleks qayta sug‘urta himoyasi ko‘rsatadi;

- 2025-yilda milliy qayta sug‘urta bozori hajmini 4 trln so‘mga etkazish, qayta sug‘urta xizmatlari eksportini kamida 30 % ga ko‘tarish, hamda sohaga investitsiyalarni 150 mlrd so‘mgacha jalb etish vazifalarini belgilagan.

Bu qaror milliy sug‘urta bozori uchun ikkita muhim yo‘nalishda ta‘sir ko‘rsatadi:

- Risklarni ichki qayta sug‘urta orqali diversifikatsiya qilish imkoniyati: Milliy qayta sug‘urta kompaniyasi tashkil etilganidan so‘ng sug‘urta kompaniyalari o‘z risklarini xorijiy bozorlarga jo‘natmasdan avval milliy qayta sug‘urta kompaniyasi bilan qayta sug‘urtalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ichki moliya resurslarining saqlanishi, valyuta chiqimlarining kamayishi va risklarni ichki moliyaviy bozorda boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirib beradi. [2]

- Moliyaviy barqarorlikni oshirish: Moody’s Ratings tahlilida ta’kidlanganidek, milliy qayta sug‘urta tizimi tashkil etilishi O‘zbekiston sug‘urta sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, bozordagi sistemali risklarni kamaytiradi hamda xalqaro bozorlarga qaramlikni pasaytiradi [3].

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qayta sug‘urta xizmatlarining ulushi oshishi sug‘urta kompaniyalarining yo‘qotishlar dispersiyasini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu risk diversification mexanizmi sug‘urta kompaniyalarining kapital talablarini engillatadi va yangi investitsiya loyihalari uchun moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Ushbu natijalar milliy sug‘urta bozorini xalqaro standartlarga moslashtirish, risklarni samarali boshqarish va milliy iqtisodiyotning sheriklari uchun ishonchli muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Prezident qarori to‘g‘risidagi ma’lumotlar va bozor statistikasi birgalikda ko‘rsatadiki, qayta sug‘urta orqali risk diversifikatsiya qilish nafaqat sug‘urta kompaniyalarining risk boshqaruv strategiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi, balki milliy sug‘urta tizimi barqarorligini oshirish, valyuta oqimlarini optimal tartibga solish va xalqaro investitsiyalarni jalb etish nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish nafaqat sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, balki bozor barqarorligini saqlash, kapital talablarini muvozanatlash va investorlar ishonchini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. 2025 yilning 9 oyidagi statistika tahlili va kompaniyalar sof foydasi ko‘rsatkichlari (jumladan Mosaic Insurance Group, EUROASIA INSURANCE va Alscom Sug‘urta) shuni ko‘rsatadiki, qayta sug‘urta mexanizmlarini samarali qo‘llagan kompaniyalar risk dispersiyasini sezilarli darajada kamaytirgan va sof foyda o‘shini ta’minlagan.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Qayta sug‘urta va risk diversifikatsiyasi samaradorligi: Sug‘urta kompaniyalari risklarni qayta sug‘urta orqali samarali diversifikatsiya qilsa, yo‘qotishlar dispersiyasi kamayadi va moliyaviy barqarorlik oshadi. Bu, ayniqsa, yirik va katastrófik risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qayta sug‘urta tizimining ahamiyati: Prezident qarori bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Milliy Qayta Sug‘urta Kompaniyasi ichki risklarni boshqarish va sug‘urta kompaniyalari portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu milliy kapitalni saqlash, xorijiy bozorga bo‘ysunishni kamaytirish va ichki moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Moliyaviy barqarorlik va bozor raqobati: Qayta sug‘urta orqali risklarni samarali taqsimlash sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi, bozorda raqobatni kuchaytiradi va yangi sug‘urta instrumentlarini joriy qilish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Milliy qayta sug‘urta kompaniyasi faoliyatini kengaytirish: Milliy qayta sug‘urta kompaniyasi orqali barcha sug‘urta kompaniyalari risk portfellarining diversifikatsiyasini majburiy va ijobiy tartibda amalga oshirish mexanizmini yaratish.

Qayta sug‘urta ulushini oshirish: Sug‘urta kompaniyalari o‘z portfelidagi yirik risklarni milliy va xalqaro qayta sug‘urta shartnomalari orqali qoplashni rag‘batlantirish.

Moliyaviy barqarorlik monitoringi: Sug‘urta kompaniyalarining sof foyda va yo‘qotishlar dispersiyasini muntazam ravishda tahlil qilish va risklarni boshqarish strategiyalarini optimallashtirish uchun nazorat mexanizmlarini joriy etish.

Xalqaro tajribani joriy etish: Sug‘urta kompaniyalari xalqaro qayta sug‘urta standartlari va risk management amaliyotlarini o‘z faoliyatiga integratsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish O‘zbekiston sug‘urta bozorining barqarorligi, moliyaviy sog‘lomligi va raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Shu bois, milliy qayta sug‘urta tizimi, sug‘urta kompaniyalarining samarali risk boshqaruv mexanizmlari va xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritish tizimini joriy etish bozorning barqaror rivojlanishi uchun asosiy vosita sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева, Э.В. Страхование: курс лекций. Иркутск: Изд-во БГУ, 2015. – 263 с.
2. Guillaume, Gorge. Insurance Risk Management and Reinsurance, 1st Edition. Routledge, 2020.
3. Hojamuratova, G.Yu. Risklarni boshqarish. Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 214 b.
4. Разумовская, Э.А., Фоменко, В.В. Страховое дело: учебное пособие. Екатеринбург: Гуманитар университет, 2016. – 249 с.
5. Swiss Re. The Essential Guide to Reinsurance. PDF, 2019.
6. Тарасова, Ю.А. Страхование: Учебник и практикум для прикладного бакалавриата. Москва: Изд-во Юрайт, 2018. – 236 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 maydagi “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-191-sonli Qarori.
8. www.napp.uz – National Agency for Project Monitoring (NAPP). Insurance sector statistical report, 2025. Toshkent: NAPP, 2025.
9. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
10. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti
11. <https://www.uzdaily> - Uzbekistan’s National Reinsurance Company receives license to operate in reinsurance sector.
12. <https://ahbor-reyting.uz/ru/sample-page/> Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va ratinglari.